Konstitutsiyaviy islohotlar mohiyati

Bugun 29-mart kuni Matematika institutida “Konstitutsiyaviy islohotlar mohiyati” mavzusida targ‘ibot tadbiri bo‘lib o‘tdi. Unda institut direktori, xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizim masalalari qo‘mitasi senatori, O‘zbekiston Qahramoni, akademik Ayupov Shavkat Abdullayevich ma’ruza qilib, institut xodimlari va yosh olimlariga Yangilanayotgan Konstitutsiya O‘zbekiston jamiyatining rivojlanishidan kelib chiqayotgan hayotiy zarurat ekanligi va unda ilm-fan, ta’lim sohasi hamda inson huquq va erkinliklari ustuvorligiga qaratilayotgan masalalar haqida atroflicha ma’lumot berdi. Tadbir davomida Konstitutsiyaviy o‘zgarishlar bo‘yicha ishtirokchilar tomonidan berilgan savollarga javob berib borildi. Shuningdek, yig‘ilishda akademik Abdulla A’zamov ham o‘z fikrlarini bayon qilib, konstitutsiyaviy islohotlarlarga befarq bo‘lmaslikni, kelajak uchun mas’ul ekanligimizni aytib o’tdi.